



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

6. Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. — New York: Free Press, 1985.
7. Armstrong M. *A Handbook of Human Resource Management Practice*. — London: Kogan Page, 2014.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти. “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарор. — Тошкент, 2020.
9. Абдурахмонов Қ.Х. *Меҳнат иқтисодиёти*. — Тошкент: Iqtisodiyot, 2019.
10. Қодиров А. ва бошқалар. *Иқтисодиёт назарияси*. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2018.

УДК: 338.502.52(075)

O‘ZBEKISTON MILLIY YASHIL TAKSONOMIYASI MOHIYATI VA AHAMIYATI

СУЩНОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЗЕЛЕНОЙ ТАКСОНОМИИ УЗБЕКИСТАНА

NATIONAL GREEN TAXONOMY OF UZBEKISTAN: ESSENCE AND SIGNIFICANCE

Xashimova S.N.

Islom Karimov nomli Toshkent Davlat Texnika Universiteti prof.v.b., i.f.n.

Annotatsiya

Maqolada barqaror rivojlanishni ta’minlashda yashil taksonomiyauning mohiyati, uni qo‘llashni dolzarbligi va ahamiyati keltirilgan O‘zbekistonda “yashil taksonomiya”ni ishlab chiqarish zaruriyati va uning joriy etilishini samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, yashil taksonomiya, iqlim o‘zgarishi, investitsiya, shaffoflik, energiya samaradorligi.

В статье представлена сущность “зелёной таксономии”, актуальность и важность её применения в обеспечении устойчивого развития, необходимость производства “зеленой таксономии” в Узбекистане и эффективность её внедрения.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зеленая таксономия, изменение климата, инвестиции, прозрачность, энерго эффективность.

The article presents the essence of green taxonomy, relevance and importance of its application in ensuring sustainable development, the necessity of producing "green taxonomy" in Uzbekistan and the effectiveness of its implementation.

Key words: sustainable development, green taxonomy, climate change, investment, transparency, energy efficiency.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o‘tish xalqaro miqyosda ham, O‘zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiyot va atrof muhit imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish orqali erishish mumkin. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning maqsadi, tabiiy resurslarni asrash, atrof-muhitni zaharlanuvchi moddalar emissiyalarini kamaytirish va kelajak avlodlarning farovonligini ta’minlashga yordam beradigan barqaror va ekologik to‘g‘ri rivojlanish modelini yaratish hisoblanadi. [1].

Yashil taksonomiya bugungi kunda ekologiya va iqtisodiyotni birlashtirgan atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan faoliyat turlarini aniqlash va tasniflash tizimidir. Ya’ni, qaysi loyiha yoki biznes “yashil” hisoblanadi, qaysi biri esa tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi — aynan shu savollarga aniq mezonlar asosida javob beradi.

So‘nggi yillarda dunyo davlatlari iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar kuchayib borayotgani sababli iqtisodiyotni “yashillantirish” yo‘liga o‘tmoqda. Aynan yashil taksonomiya investorlar, banklar va davlatlar uchun muhim yo‘riqnoma hisoblanadi.

Yashil taksonomiyaning yana bir muhim jihati — shaffoflikni ta‘minlashidir. Chunki ba’zi kompaniyalar o‘z faoliyatini “yashil” deb ko‘rsatishga urinadi, ammo amalda bu haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Taksonomiya esa aniq mezonlar orqali bunday “yashil yuvish” (greenwashing) holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Yashil taksonomiya — bu atama so‘nggi yillarda moliya va ekologiya sohasida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi sharoitida jahon hamjamiyati iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishda "yashil taksonomiya"ni joriy qilish orqali moliyaviy resurslarni ekologik toza loyihalarga yo‘naltiruvchi muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25 oktyabrda 561-son qarori bilan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlar (02.12.2022-yildagi PQ-436-son qaror bilan tasdiqlangan) rejasiga muvofiq “yashil” turdagi faoliyatni tasniflash uchun Milliy “yashil” taksonomiya tasdiqlandi. [2].

“Yashil” loyihalar taksonomiyasi – barqaror rivojlanishga ko‘maklashadigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga, atrof muhitga salbiy ta‘sir darajasini pasaytirishga va energiya tejamkorligini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat turlari, loyihalar va aktivlarni tasniflash tizimi.

"Yashil taksonomiya" tushunchasi nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda turlicha talqin qilinadi.

Bugungi kunda dunyoda 200 dan ortiq turli taksonomiyalar mavjud. Ularning har biri o‘z milliy xususiyatlariga ega, chunki mamlakatlarning geografik joylashuvi, rivojlanish darajasi va ekologik muammolari turlicha. Eng nufuzli xalqaro standartlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Yevropa Ittifoqining Yashil taksonomiyasi (EU Taxonomy);

Xalqaro kapital bozorlari assotsiatsiyasining (ICMA) Yashil obligatsiyalar prinsiplari;

Iqlim obligatsiyalari tashkilotining (CBI) taksonomiyasi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida birinchi marta “Yashil taksonomiya”ni barqaror rivojlanishning va sof ekologiyani ta‘minlashni keng qamrovli dasturi sifatida ta‘riflangan. "Yashil taksonomiya" ekologik muhitga ta‘siri bo‘yicha iqtisodiy faoliyatlar turlarini tasniflovchi tizim sifatida qaralgani.

“Yashil taksonomiya” yoki “yashil tasnif” zamonaviy dunyoda muhim rol o‘ynaydi. U ekologik barqaror va ekologik toza investitsiyalar, loyihalar va amaliyotlarni aniqlashga qaratilgan. “Yashil taksonomiya” issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish loyihalariga investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi. Shuningdek, “yashil taksonomiya” yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishini rag‘batlantirib, ekologik toza yechimlarga talabni yaratadi. Moliyaviy va korporativ qarorlarni tartibga solib, kompaniyalar faoliyatiga ekologik jihatlarni integratsiya qilishga undaydi.

“Yashil taksonomiya”ni ishlab chiqarish bir necha sabablarga ko‘ra dolzarbdir: [3].

1. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish zarurati: Global iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytiruvchi ekologik toza texnologiyalarga o‘tishga ko‘maklashuvchi investitsiyalar va loyihalarni aniqlash va ilgari surish imkonini beradi.

2. Barqaror sarmoyaga qiziqishni ortishi: Investorlar va iste‘molchilar moliyaviy va korporativ qarorlar qabul qilishda barqarorlik va mas‘uliyat muhimligini. Yashil taksonomiya shaffof mezonlarni asosida investorlarga investitsiya bozorini barqaror rivojlantirish imkonini beruvchi ekologik jihatdan barqaror loyihalar va kompaniyalarni aniqlash imkonini beradi.

3. Tartibga solish va standartlashtirish. Yashil taksonomiya biznes va investitsiyalarning ekologik jihatlarni tartibga solishga yordam beradigan qoidalar va standartlarni ishlab chiqish uchun

asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu, shuningdek, moliya sektorida shaffoflik va mas’uliyatni oshirish imkonini beradi.

4. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish: Yashil taksonomiya yangi ekologik toza texnologik, innovatsion va amaliy yechimlarni ishlab chiqishni rag‘batlantirishi mumkin, bu esa o‘z navbatida ekologik barqaror tarmoqlarni rivojlantirishga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

Yashil taksonomiya ekspert guruhlaridan tomonidan belgilangan maxsus mezonlar va standartlar yordamida o‘lchanadi.

Bular quyidagi asosiy elementlarni o‘lchaydi:

1. Barqarorlik mezonlari: Yashil taksonomiya loyihalar va mahsulotlarning barqarorligini, jumladan, ularning atrof-muhitga ta’siri, ijtimoiy jihatlari va iqtisodiy barqarorligini baholash mezonlarini belgilaydi. Ushbu mezonlar energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, ijtimoiy mas’uliyat kabi mezonlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Standartlashtirish: Yashil taksonomiya loyihalar va mahsulotlarning barqarorlik darajasini baholash va o‘lchash uchun standartlashtirilgan metodologiya va vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bunga ekologik sertifikatlar, barqarorlik standartlari, mahsulotning hayot aylanishini baholash usullari va boshqa vositalardan foydalanish kiradi.

3. Hisobot: Yashil taksonomiyaga rioya qilishga da’vogar kompaniyalar va tashkilotlar barqarorlik nuqtai nazaridan ekologik faoliyati, ijtimoiy mas’uliyati faoliyati to‘g‘risida hisobotlarni taqdim etishlari kerak.

4. Monitoring tizimi: Yashil taksonomiyani o‘lchash uchun barqarorlik mezonlarini amalga oshirishni nazorat qilish, natijalarni baholash va kerakli tuzatishlarni kiritish imkonini beruvchi monitoring tizimi qo‘llaniladi.

Yashil taksonomiyada belgilangan maxsus mezonlar va standartlar orqali o‘lchash loyihalar barqarorligini baholashga kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi, bu investorlar, moliya institutlari va iste’molchilarga o‘z investitsiyalari va iste’molchilarning afzalliklari to‘g‘risidagi qaror qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi quyidagi 7ta toifaga bo‘lingan:

suv va xom-ashyolardan foydalanish samaradorligi;

havo va tuproq sifatini yaxshilash;

barqaror qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, ekoturizm;

yashil transport;

energiya samaradorligini oshirish;

qayta tiklanuvchi energiya;

yashil binolar.

Ular ham o‘z navbatida turli sektorlarga bo‘lingan.

Yashil taksonomiyani qabul qilish uning iqtisodiy samaradorligi bir necha jihatlarida namoyon bo‘ladi:

Shaffoflik va standartlashtirish: Yashil taksonomiya ekologik barqaror loyihalar va mahsulotlarni aniqlashning aniq mezonlarini belgilaydi, bu esa yashil investitsiyalarni baholash va taqqoslashda shaffoflik va standartlashtirishni rag‘batlantiradi.

Yashil sarmoyani rag‘batlantirish: Yashil taksonomiya sarmoyadorlar va moliya institutlariga sarmoyani yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan ekologik barqaror loyihalar va biznesga yo‘naltirish orqali ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish: Yashil taksonomiya korxonalar va tashkilotlarni barqaror rivojlanishga intilishga undash orqali ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirishga yordam beradi.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashga hissa qo‘shish: Issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytiradigan va energiya samaradorligini oshiradigan loyihalarga investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirish orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi.

Yangi bozorlar va texnologiyalarni rivojlantirish: Yashil taksonomiya yangi yashil texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi, tadbirkorlar va kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yashil taksonomiyaga odatda ekologik va iqtisodiy mezonlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida qaraladi, biroq uning ijtimoiy jihati ham nihoyatda muhimdir. Chunki barqaror rivojlanish faqat tabiatni asrash bilan emas, balki insonlar farovonligi, sog‘lig‘i va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash bilan ham chambarchas bog‘liq. [4].

Avvalo, yashil taksonomiya aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, ekologik toza energiya manbalariga o‘tish havoning ifloslanishini kamaytiradi, bu esa odamlar salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada nafas yo‘llari kasalliklari kamayadi, umr sifati oshadi va sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan yuk yengillashadi.

“Yashil iqtisodiyot” doirasida qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish kabi sohalar rivojlanadi. Bu esa aholining turli qatlamlari uchun yangi kasb va imkoniyatlar eshigini ochadi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun zamonaviy, istiqbolli ish o‘rinlari paydo bo‘ladi.

Yashil taksonomiyaning yana bir muhim ijtimoiy jihati — adolat va inklyuzivlikdir. To‘g‘ri joriy etilgan siyosat natijasida resurslardan foydalanish yanada adolatli bo‘ladi, chekka hududlar ham ekologik toza infratuzilma bilan ta‘minlanadi. Masalan, qishloq joylarda quyosh panellari yoki kichik shamol stansiyalarini o‘rnatish orqali energiyaga kirish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, yashil taksonomiya aholining ekologik ongini oshirishga yordam beradi. Odamlar o‘z kundalik hayotida atrof-muhitga e‘tiborliroq bo‘lishni boshlaydi: chiqindilarni saralash, energiyani tejash, suvdan oqilona foydalanish kabi odatlar shakllanadi. Bu esa jamiyatda mas‘uliyatli iste‘mol madaniyatini rivojlantiradi.

O‘zbekiston uchun ham yashil taksonomiyani joriy etilishi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslarini tejash va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda. Bu esa nafaqat tabiatni asrash, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Shubhasiz, iqlim o‘zgarishi tahdidi va yanada barqaror amaliyotga o‘tish zarurligini hisobga olgan holda, yashil taksonomiya zamonaviy dunyoda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi, balki yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi, moliyaviy va korporativ qarorlarni tartibga soladi. Yashil taksonomiyani qabul qilish yanada barqaror va mas‘uliyatli iqtisodiyotga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida hozirgi va kelajak avlodlarga foyda keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, yashil taksonomiya nafaqat tabiatni himoya qilish vositasi, balki ijtimoiy taraqqiyot omili hamdir. U orqali jamiyat yanada sog‘lom, teng va barqaror hayot tarziga yaqinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil taksonomiya — bu shunchaki yangi ilmiy tushuncha emas, balki kelajak iqtisodiyotining poydevori hisoblanib, insoniyatni tabiat bilan uyg‘unligini va iqtisodiy rivojlanish bilan ekologik muvozanatni uzviyligini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xashimova S. Iqtisodiyotni Dekarbonizatsiyalash: Mohiyati Va Imkoniyatlari //Green Economy and Development. – T. 3. – №. 10. – C. 66-73.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yildagi Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 561-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>
3. Хашимова, С. Н. (2022). Яшил иктисодиёт тараққиёт гарови.
4. TAXONOMY, Nigmatullayevna HS GREEN. "ESSENCE, APPLICATION AND EFFECTIVENESS." *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development* 24 (2024): 84-87.